

Jizzakh State Pedagogical Institute



***Journal of Preschool
Education***

***The faculty of pre-school
education***

CHEТ TILINI O'QITISHDA YORDAMCHI VOSITALAR.

*G'aybullayeva Aziza Nizomjon
qizi.*

Xo'rozova Xumora Sadreddin qizi.

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 530-20 guruh talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga o'yinlar yordamida ingliz tilini o'rgatish haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: o'yin , maktabgacha yosh , vedio, multfilm, qo'shiqlar, lug'at, rasmlar, alifbo, kitoblar.

Аннотация: В этой пословице приведены примеры учения английского языка для дошкольников в виде игр.

Ключевые слова: игра, дошкольный возраст, видео, мультфильм, песни, словарь, рисунки, алфавит, книги.

Abstract: This article is about teaching English to preschoolers through games.

Keywords: Game, preschool age, video, cartoon, songs, dictionary, pictures, alphabet, books.

Hozirgi davrda ingliz tilini o'r ganayotgan barcha yoshdagi odamlarning soni tez sur'atlar bilan o'sdi. Buning sababi shundaki, hayot jarayonida ingliz tilini bilmasdan boshqarish tobora qiyinlashib bormoqda. Jumladan, 2012-yil 10-dekabrda qabul qilingan "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori hamda 2013–2014-o'quv yilidan boshlab umumta'lif maktablarining birinchi sinflarida xorijiy tillarni uzluksiz o'rgatishning joriy etilishi buning isbotidir. Til o'rganishni ilk boshlaganlarning yoshi ham o'zgardi. Zamonaviy ta'lim makonida ta'lim va tarbiyaning asosiy maqsadi har tomonlama rivojlangan shaxs, barkamol shaxsni shakllantirishdan iborat.

Bunday shaxsni shakllantirishga maktabgacha yoshda chet tilini o'rgatish o'ziga xos hissa qo'shadi. Chet tilini o'zlashtirish uchun maktabgacha yosh o'ziga xosdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologiyasini hisobga olgan holda

aytishimiz lozimki ular nutqning fonetikasi va intonatsiyasiga ayniqsa sezgir, shuning uchun ta'limning boshlang'ich bosqichining asosiy vazifasi bolalarda to'g'ri talaffuzni shakllantirish bo'lib, unga turli mashqlar yordamida erishish mumkin. Ingliz tili fanini o'qitishda turli xil o'yinlar orqali o'qitishning o'rni beqiyosdir. Bola tabiatan juda qiziquvchan bo'ladi va u atrof olamni o'rganish uchun barcha xis tuyg'ularini ishga soladi. O'yin bolaning eng asosiy va sevimli mashg'uloti bo'lganligi bois, bolaga atrof olam va undagi barcha zaruriy bilim va ko'nikmalar o'yin vositasida tanishtirib borilsa, ko'nikmalarni o'zlashtirish samaradorligi bir necha barobarga oshadi. O'yin bolani nafaqat jismoniy faolligini oshiradi shuningdek, u ruhiy tetiklikni ham shakllanitirshga yordam beradi. O'yin bolani o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga, atrofdagilar bilan ijtemoiy munosabatlarni shakllantirishga ham katta ko'mak beradi. Shu sababli ota — ona va tarbiyachi murabbiylar bolalarga imkon qadar ko'proq o'yin orqali o'rganishni targ'ib qilishlari kerak. Aynan o'yin orqali bolalar ta'lim oladilar o'z iqtidorlarini kashf etadilar.

Bolalarga ingliz tilini mazmunli va qiziqarli o'rgatish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

- Qo'shiq va she'rlar orqali tushuntirish yoki esda qolishi qiyin bo'lgan, ma'noga ega bo'lмаган harf yoki birikmalarni kuya solib o'rgatish. Bunga misol qilib, bolalarning ingliz tili alifbosini qo'shiq qilib o'rganishlari shunchaki yodlashdan ko'ra samarali ekanligini ko'rsatish mumkin.

- Aqliy va jismoniy harakatlar bilan bo'g'liq bo'lgan o'yinlar;

Multfilmlar: Bolalar til o'rganish mobaynida multfilmdagi gaplarni tushunmasada multfilm qahramonlarining harakatlari orqali ular ishlata yotgan so'zlarni tushunishga intiladi. Bu esa bolalar uchun qiziq va til o'rganishlari uchun samarali yo'l.

- Topishmoqlar: Bolalarda topishmoqlarning javobini topishga qiziqish kuchli. Shuning uchun o'qituvchi topishmoqni ingliz yoki o'zbek tilida aytsada, uning javobini bolalardan ingliz tilida aytishini talab qilishi lozim. Shunda bolalar so'zlarni tez o'rganishadi.

-Imo-ishoralar, yuz ifodalari orqali: O'qituvchi bolaga biror gapni gapirganda yoki buyruq berganda, masalan, bu yoqqa kel (come here), kitobni och (open the book), turing (stand up), doskaga qarang (look at the blackboard) kabi gaplarda imo- ishoralardan foydalansa bolaga tushunarli bo'ladi.

- ko'rgazmali qurollar, plakatlar, kitoblar orqali;
- ko'zga ko'rindigan va kundalik hayotda ko'p ishlataladigan narsa, buyumlarga yozish. Masalan: eshik (door), kitob (book), stol (table), doska (blackboard), oyna (window) va shu kabilarga yozish. Bunday narsa-buyumlar doimo ko'zga tushib turishi va amliyotda ko'p qo'llanishi bois, bola bu so'zlarni ixtiyorsiz tarzda o'rganadi.

-Mavzuga oid muhit: O'qituvchi mavzusiga qarab o'sha muhitni yaratib bera olsa, bolalar tilni yaxshi o'rganishadi. Masalan: traveling, birthday, in the kitchen va boshqalar. Traveling (sayohat) mavzusida o'qituvchi sayohat uyushtirishi, sayohatga qanday vositalar orqali (foot, bicycle, automobile, train, boat, airplane) borish mumkinligi, qayerlarga sayohat qilish (Tashkent, Samarkand, Bukhara, England, USA) muhimligi haqida ma'lumot beradi. Bu hol tarbiyalanuvchilarning so'z boyligini, til imkoniyatlarini kuchaytiradi, dunyoqarashini o'stiradi.

Xulosa qilib shuni aytsak bo'ladiki, ingiliz tilini maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin tariqasida o'tish maktabgacha ta'lim tashkiloti yosh guruhlari uchun ham tarbiyachilar uchun ham ancha samarali, chunki 3-7-yoshli bolalarga og'zaki aytgan taqdirda ham bolalar ularni mexanik yodlaydilar, ko'rgazmali quollardan foydalangan taqdirda ham bolalar bir qancha vaqt o'tgan taqdirda ular xotirasida qilmaymi.O'yindan foydalanib o'tmoqchi bo'lgan tarbiyachi yuqori samaraga erishadilar. Shuning uchun barcha tarbiyachilar uchun chet tillarini o'tish mobaynida o'yindan foydalanish tafsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bekmuratova U.B. "Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" mavzusida referat. Toshkent — 2012 yil

Maktabgacha ta'lim jurnali: <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/index>

2. M.Xoldorova, N.Fayziyeva, F.Rixsittilayeva. “CHET TILINI O’QITISHDA YORDAMCHI VOSITALARDAN FOYDALANISH”. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005
3. O’.Hoshimov, I.Yoqubov. “INGLIZ TILI O’QITISH METODIKASI” (o’quv qo’llanma) Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2003
4. Jalolov J. Chet tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent., 2012